

ILK SHARQ UYG‘ONISH DAVRI MUTAFAKKIRLARI IJODIDA MA’NAVIY YETUKLIK MASALASI TAHLILI

Rabbimova Shaxnoza Eshmirzayevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti
tekefon +99888-3260702 (Uzbekistan)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq Uyg‘onishi davrida ma’naviy-ma’rifiy sohada asosiy masala inson muammosi ekanligi, insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta’lim-tarbiyaga oid asarlarning asosida rivojlanganligi aks ettirilgan. Bunday asarlar islom dinni ta’sirida yozilganligi pand-nasihat, odo-axloq, yaxshlikka yo‘naltiruvchi omillar yuqori o‘rinda turganligi asoslangan. Sharq Uyg‘onishi davrida ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy masalalari asosiy markazda bo‘lganligi asoslanib, bola tarbiyasida bular muhim kasb etishi izohlab berilgan. Hozirgi kunda shu davr bilimlaridan keng foydalanib, yosh avlodni ma’naviy, axloqiy, yaxshlikka moiligini, savodxonligini yanada oshirish asosiy vazifa sifatida izohlangan.

Аннотация: В данной статье показано, что в эпоху Восточного Возрождения главным вопросом в духовно-просветительской сфере является проблема человека, что идея гуманности, прославления человека разрабатывалась на основе просветительских произведений. То, что такие произведения были написаны под влиянием исламской религии, основано на том, что факторы, ведущие к добру, находятся на самом высоком месте. Исходя из того, что в эпоху Восточного Возрождения в основном центре находились духовно-воспитательные и нравственные вопросы, объяснялось, что это важные занятия в воспитании детей. В наши дни, широко используя знания этого периода, объясняют основной задачей дальнейшее повышение духовности, нравственности, доброты и грамотности подрастающего поколения.

Kalit so‘zlar: Sharq Uyg‘onish davri, axloq, insoniylik, odo-axloq, ma’naviy kamolot, halollik saxovat.

Ключевые слова: Восточное Возрождение, нравственность, человечность, нравы, духовная зрелость, честность, великодушные.

Sharq Uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim bo‘lgan. Axloq masalasi faylasuflarning ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo‘ldi. Ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo‘lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil e’tildi. «Qutadg‘u bilig», «Qobusnoma», «Hibbat ul-haqoyiq», «Guliston», «Bo‘ston», «Axloqi Jalohy», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Muhsiniy», «Mahbub ul-qulub» kabi Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jalohddin Davoniy, Husayn Voiz



Koshifiyning ta'limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta'kidlaganimiz inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal e'tish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga hisoblandilar. Asarlarda ta'limiy-axloqiy masalalar insonning ma'naviy kamolga ye'tishishi yuksak axloqqa ega bolishi, ilm-fanni egallashdagi g'oya ilgari surilgan.

Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish «Qur'on» va «Hadis»larni o'rganish va o'zlashtirish asosida olib borilgan. «Qur'on» va «Hadis»lardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta'sir etgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlikning muhim xislatlari: halollik, saxovat, himmat, mehr-u oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o'z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan, ta'limiy-axloqiy asarlarga ta'sir etgan. Ta'limiy-axloqiy asarlar bevosita Hadislarda ilgari surilgan g'oyalar asosida yaratildi. Hadislar ta'siri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ulhaqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlar negizida ko'rinadi [1:97]. «Hadis»lardagi pand-nasihatlarida axloq masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Misol uchun quydagi hadisga nazar salsak:

Abu Zarr va Muoz ibn Jabal roziyallohu anhular rivoyat qiladilar:

«Paygambarimiz sollallohu alayhi va sallam: “Qayerdada bo'lsang ham, Allohdan qo'rq. Qilgan har bir yomon ishing orqasidan uni yuvadigan biron-bir yaxshilikni ergashtir va insonlarga nisbatan go'zal xulq ila muomala qil” dedilar, (Termiziy, Dorimiy, Imom Ahmad rivoyatlari) [2:94].

«Insonlarga nisbatan go'zal xulq, ila muomala qil» deyilgan jumlada quydagicha izoh beriladi:

“Go'zal xulq, insonlarga yaxshi muomala qilish va ularga ozor bermaslikni bildiradigan insoniy fazilatdir” [3:95]. Sharq Uyg'onishi davri ma'naviy-ma'rifiy va axloq haqidagi fikrlatni quydagi asarlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilik” asari – baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta'lim-tarbiyaga oid yetuk didaktik asar ekanligini bilish mumkin. “Qutadg'u bilik” asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asariga e'tibor qaratsak, asar boblarda, asosan, bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muhim xususiyatlari e'tirof etgan.

Asarda boshqa ta'limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol e'tishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqiy tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muhabbat qo'yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'ldan saqlanish haqida, xarom va halollikning farzlari, ularni bir-biridan farqlay olish, e'tiqod va sadoqat kabi masalalar ustida fikr yuritadi.



Ulug'likka etsang unutmam o'zing,
Agar atlas kiysang, unutmam bo'zing.
Qora bosh yag'isi qizil til turur,
Necha bosh edi u, yana ham eyur.

Endi e'tiborimizni Kaykovusning "Qobusnoma" asariga yo'naltiramiz!

Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta'rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus «... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim» [4:257], deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'langan holda kamolga etkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Asar ma'zmunidan kelib chiqqan holda, javonmard uch narsadan iboratligini bilish mumkin.

1. aytgan so'zni o'zi amalga oshirish;
2. rostlikka xilof ish qilmaslik;
3. xayr ishni ilgari tutishlik;

U odamdagi qolgan barcha sifatlar bu uch narsaning ostida ekanligini ta'kidlaydi.

«Qobusnoma»da jismoniy tarbiyaga ham katta ahamiyat berilgan bo'lib, asardagi «Shikorga chiqmoq zikrida», «Urush qilmoq zikrida», «Chavgon o'ynamoq zikrida», «Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida» va boshqa boblarda ko'rishimiz mumkin.

Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urishmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik: riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik: yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik: baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; g'ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir yerda o'tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik; biror kishi aybingni aysa, shu aybni yo'qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muxtoj bo'lgan odamnigina, qahr bilan qo'rqitmaslik; gunohkorning gunohini avf e'tish; kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir daqiqada bunday xatti-harakatlarga duch keladi. Kaykovus ham "Qobusnoma" asarini yozishdan maqsad o'z o'g'li Gilonshohgina emas, balki butun mamlakatidagi fuqorolariga murojat qilgan desak bo'ladi. Asarda dehqonchlikdan tortib to shohlikka qadar o'z o'gitlarini berib o'tgan.



Sharq Uygʻonishi davrida taʼlim-tarbiyaga oid koʻplab allomalarning qarashlari eʼtirof etsak boʻladi.

Abu Nasr Forobiy birinchi boʻlib taʼlim va tarbiyaga taʼrif bergan olimdir: Taʼlim – soʻz va oʻrganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyot, ishtajriba bilan amalga oshiriladi. Taʼlim-tarbiya ikki yoʻl bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi soʻzlar va majbur eʼtish. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, soʻzining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan boʻlsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq boʻlsin, diyonatli boʻlsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning maʼnaviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga boʻladi. Beruniy taʼlimotiga koʻra inson kamolotida uch narsa muhim roʻl oʻynaydi:

1. Irsiyat. 2. Muhit. 3. Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yoʻllari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

Ibn Sinoning Taʼlim-tarbiyaga doir qarashlari fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, oʻch olish, adovat, boʻxton, irodasizlik kabilardir.

U fanlar tavsifi haqida ham fikr bildirgan. Olim birinchi oʻringa tibbiyot fanlarini qoʻyadi. Falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga boʻladi. U birinchi guruhga eʼtika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruxga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini oʻrganuvchi barcha fanlarni kiritgan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa boʻlib maktabda oʻqitish zarurligini koʻrsatadi va taʼlimda quyidagilarga rioya eʼtish zarurligini taʼkidlaydi: 1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qoʻymaslik; 2) taʼlimda yengildan qiyinga qarab bilim berish; 3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos boʻlishi; 4) oʻqitishda jamoa boʻlib maktabda oʻqitishga eʼtibor berish; 5) bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; 6) oʻqitishni jismoniy mashqlar bilan koʻshib olib borish.

Ibn Sinoning shaxsiy faolyati dunyoviy ilmlarni oʻrganish haqidagi taʼlimotlari, talim-tarbiya haqidagi mulohazalari umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida yuksak oʻrinni egallaydi.

Sharq Uygʻonishi davrida maʼnaviy-maʼrifiy va axloqiy masalalari asosiy markazda boʻlgan. Bola tarbiyasida bular muhim kasb etganligini allomalimiz yaxshi bilishganlar. Hozirgi kunda shu davr bilimlaridan keng foydalanib, yosh avlodni maʼnaviy, axloqiy, yaxshilikka moiligin, savodxonligini va h.k.larini yanada oshirish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik sohada faoliyat olib borayotgan har bir pedagog Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Saʼdiy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jalohddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarini koproq mutola qilish oʻz bilimlarini oshirish kerak. Bugungi kunda ham yoshlarni milliy va umuminsoniy



qadriyatlar ruhida tarbiyalash – eng dolzarb vazifa sanaladi. Zero, mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “...hech shubhasiz, buyuk ajdodlarimiz merosiga tayangan holda hozirgi zamon va taraqqiyotning yangi va yuksak cho‘qqilarini egallashga intilishimiz, o‘zimizning nimalarga, qanday ulkan ishlarga qodir ekanligimizni namoyon etishimiz, barchamiz, avvalo, navqiron avlodimiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lishi shart”[5:91]. Shulardan kelib chiqqan holda ushbu maqolamizda quyidagi omillar bilan xulosalash mumkin:

Birinchidan, bugun o‘sib kelayotgan yosh avlodni yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash, ro‘y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bu ulug‘vor maqsadlarga erishishimizda buyuk ajdodlarimiz, xususan, Sharq Uyg‘onish davri ulug‘ mutafakkirlarining boy ma’naviy merosiga tayanish, ularni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining aynan ma’nan barkamol inson tarbiyasi borasidagi g‘oyalar ilgari surilgan nodir asarlarini keng targ‘ib qilish, bular haqida o‘quvchi yoshlarga ko‘proq bilim berish, ajdodlar merosini kelajak avlod vakillariga yetkazish oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi;

Uchinchidan, “Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”[6] ligini, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha marotaba ta’kidlagan.

References

1. K.Hashimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi” II qism Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti T. – 2005. B. – 97.
2. Imom Muhiddin Zakariy ibn Sharaf Nababiy “Qirq hadis” sharh va izohlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriryatib T. – 2018. B. 94.
3. Imom Muhiddin Zakariy ibn Sharaf Nababiy “Qirq hadis” sharh va izohlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriryatib T. – 2018. B. 95.
4. Kaykovus “Qobusnoma” Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasini 2-nashri “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018. B-257.
5. Karimov I.A. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqlarimizning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – Toshkent: 2007. B.- 91.



6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси//Халқ сўзи, 2020 йил, 30 декабрь, №276 (7778).
7. Qaxharova, M., & Absattorov, V. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *The Light of Islam*, 2020(1), 110-115.
8. Абсаттаров, Б. М., & Юсупова, Н. А. (2020). Эволюция взглядов об этике, этических критериях и этических нормах. *Учёный XXI века*, (12-1 (71)), 75-81.
9. Absattarov, V. M. (2019). EVOLUTION OF VIEWS ON ETHICS, ETHICAL CRITERIA AND ETHICAL STANDARDS. In *НОВАЯ НАУКА: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ* (pp. 135-141).
10. Absattarov, V. M. (2019). SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF THE PERSON IN MODERN WORLD. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), 167-173.
11. Mamarasulovich, A. B. (2021). IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT OF ETHICAL CRITERIA AND NORMS.
12. MAMARASULOVICH, A. B. (2021). Баркамол ёшларни тарбиялашда маънавий-ахлоқий мезон ва меъёрларнинг ўрни. *АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМА*.
13. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.
14. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
15. Mamarasulovich, A. B. (2021). IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT OF ETHICAL CRITERIA AND NORMS. Абсаттаров, Б. (2019). ШАХС МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БАРКАМОЛЛИГИ МЕЗОНЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
16. MAMARASULOVICH, A. B. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ. *Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха*.
17. MAMARASULOVICH, A. B. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *Scienceweb academic papers collection*.
18. MAMARASULOVICH, A. B. (2019). Общность общечеловеческих и национальных ценностей в нравственном развитии. *ILM SARCHASHMALARI*.
19. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). INNOVATORY METHODS OF WORKING WITH UNORGANIZED YOUTH. *European Science Riview*.
20. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). Zamonaviy sivilizatsiya rivoji va uning axloqiy mezonlari. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.



21. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ–ЎЗ–ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
22. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
23. Mukhammadievich, K. J., & Mamarasulovich, A. B. (2022). POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONFLICT OF PHILOSOPHY AND SUFISM. *Conferencea*, 46-56.
24. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
25. Собирова, М. А. (2023, January). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, ТРАДИЦИЙ И ЦЕННОСТЕЙ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 172-179).
26. Sobirova, M. A. (2022). THE SUCCESS OF THE INFORMATION AGE AND PROBLEMS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 111-115.
27. Собирова, М. А. (2013). Значение духовных ценностей в развитии национальной духовности. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 83-86.
28. Собирова, М. А. (2019). Формирование патриотической позиции молодежи на примерах героизма народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. *Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны*, 232.
29. Yunusovna, X. D. (2022). ALLOMAS ON SPIRITUAL AND MORAL ASSIGNMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 134-136.
30. Turdiyev, B. S. (2017). SCIENTIFIC ACTIVITIES OF THE SCIENTIFIED OBSERVATORY OF ULUGBEK. *NEW UNIVERSITY*, 15.
31. Samiyevich, T. B. (2022). Education of youth in the Hadiths of Imam al-Bukhary. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 98-101.
32. Samiyevich, T. B. (2022). The role of the scientific heritage of ancestors in improving the intellectual competence of young people. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 102-105.
33. Otaboyevich, K. M. (2022). Study of the problem of developing students' ideological-ideological competence in philosophical-pedagogical literature. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 88-93.
34. Otaboyevich, K. M. (2020, December). DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL POTENTIAL OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF



- NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 9-11).
35. Safojevich, J. X., & Farrukh, N. (2021). The Relationship Between the West and the Islamic World in International Geopolitical Processes. *Middle European Scientific Bulletin*, 17, 280-283.
36. Sapayevich, J. X. (2022). OPPORTUNITIES OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL GEOPOLITICAL RELATIONS. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 129-131.
37. Жуманиязов, Х. С., & Нигманова, У. Б. (2019). Трудовой подвиг народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. *Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны*, 145.
38. Dilorom, K. (2022). The fate and activity of the jadids in the soviet period. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 207-213.
39. Sanakulov, A., Rakhmonov, D., & Nazarova, N. (2020). Social Service Technologies and Mechanisms of its Implementations. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(3), 14192-14198.
40. Амонов, Б., Алимова, Ш., & Санакулов, А. (2018). Процесс глобализации и модернизации в Республике Узбекистан. *Theoretical & Applied Science*, (5), 431-435.
41. Касимова, З. С., & Санакулов, А. Н. (2019). ВЫСОКАЯ ДУХОВНОСТЬ- КАК ФАКТОР ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (1), 168-172.
42. Sanakulov, A. N. (2019). MAINTENANCE OF THE WORLD OUTLOOK SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. *Социосфера*, (4), 54-57.
43. Санакулов, А. Н. (2022, January). ВЫРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА-КАК ЗАЛОГ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛЮДЕЙ. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 2, No. 1).
44. Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. *JournalNX*, 897-903.
45. Tulenova, G., & Sanaqulov, A. (2022). MODERN VIRTUAL TECHNOLOGY AND ITS OPPORTUNITIES. *Academic research in educational sciences*, 3(9), 100-105.
46. Омонов, Б., & Санакулов, А. (2018). ДАВЛАТ АРБОБИ ВА СИЁСИЙ ЕТАКЧИ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 38(1), 82-84.
47. Санакулов, А. (2017). Духовность-основа информационной безопасности. *Молодой ученый*, (19), 231-234.10.
48. Bakiyevna, V. Z., Khamidovna, S. A., Nazarovich, A. S., & Abdugarimovna, G. K. (2021). The Role of the Spiritual Heritage of Mahmudhodja Behbudi in the Education of the Heirs of the Third Renaissance. *Design Engineering*, 14650-14671.



49. Khakimov, A. (2021). THE ROLE OF POLITICAL AND LEGAL CULTURE IN ENSURING CIVIC RESPONSIBILITY IN SOCIETY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.2 Historical sciences).
50. Nizomi, A. V. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
51. Ҳақимов, А. О. (2017). ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ҚОНУН БИЛАН ҲИМОЯЛАНИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Научная дискуссия: вопросы юриспруденции*, (5), 164-167.
52. Qaxxorova, M. (2022). БИОЭТИКА ИНСОН ҲАЁТИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ АМАЛИЙ ФАЛСАФАСИ СИФАТИДА. NamDU.
53. Qaxxorova, M. (2022). ЖАДИДЧИЛИК ТАЪЛИМОТИДА ЖАМИЯТ МУҲИТИНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Теория и практика современной науки.
54. Qaxxorova, M. (2022). Ma'naviy tarbiya strategiyasi. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа.
55. Nazarovich, S. A., & Olimjanovich, X. A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
56. Kholmuminov, J. M. (2022). THE POSITION OF TASAVVUF AND IRFAN IN MAVERUNNAHR AND KHORASAN: IBN AL-ARABI AND ABDURAHMAN JAMI (A COMPARATIVE ANALYSIS). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 76-92.
57. Холмўминов, Ч. (2021). ХУДО ВА ҲАСТӢ АЗ ДИДГОҲҲОИ АРАСТУ, ФОРОБӢ ВА СИНО. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1115-1123.
58. Холмуминов, Д. М. (2021). ТАСАВВУФНИ ШАКЛЛАНТИРГАН МАНБАЛАР МУАММОСИ ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИДА. *Исследование Ренессанса Центральной Азии*, 2(2).
59. Холмўминов, Ж. М. (2021). МОВАРОУННАХР ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ МАКТАБЛАРИ ВА ИБН АЛ-АРАБИЙ ТАЪЛИМОТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 803-811.
60. Холмуминов, Д. (2021). ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ СУФИЗМА—ОДНА ИЗ ОСНОВ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1145-1150.
61. Холмўминов, Ж. (2021). СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ФАТҲЛАРИДА ҲАРБИЙ ТАКТИКА ВА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАР



- МУТАНОСИБЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 538-553.
62. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES Transformation processes and special features. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 297-307.
63. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES. *Solid State Technology*, 63(6), 26-34.
64. Холмуминов, Д. М. (2020). ВАХДАТ УЛ-ВУЖУД ТЕОЛОГИК ТАЪЛИМОТИ ВА НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС*, 1(1).
65. Холмуминов, Д. М. (2020). УЧЕНИЯ НАКШБАНДИЯ И ФИЛОСОФИЯ «ВАХДАТ УЛ-ВУДЖУД» (ЕДИНСТВО БЫТИЯ). *Qazaqtaný*, 74.
66. Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich. (2023). YOSH AVLODNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH-XALQIMIZ TARBIYAVIY AN'ANALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA. *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*, 2(1), 273-281.

